



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

2023 y. "09" mart

Nº 01-10/41

"Qizlar ovozi" klubi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirining 2023-yil 31-yanvardagi 01/70-A/F-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risida vaqtinchalik nizomning 12-bandи "d" kichik bandiga muvofiq, yosh xotin-qizlarning istiqbolli loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ularning bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. Quyidagilar:

"Qizlar ovozi" klubi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga;

Hududlardagi "Qizlar ovozi" klublari koordinatorlarini tanlab olish reja grafigi 2-ilovaga;

"Qizlar ovozi" klubini tashkil etish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Joriy yilning mart oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yoshlar markazlarida "Qizlar ovozi" klubining hududiy koordinatorlarini tanlab olish ishlari tashkil etilsin.

3. Xarajatlar Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

4. Yoshlar ishlari agentligi:

Yoshlar media loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'limi (N.Abduqodirov)ga hududlardagi "Qizlar ovozi" klubi faoliyatini samarali tashkil etish doirasidagi tadbirlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishslash bo'limi (U.Sultonov)ga "Qizlar ovozi" klubi faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida 10 kun muddat ichida Agentlik markaziy apparati Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limi (S.Abdunazarov)ga belgilangan tartibda hisobot topshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘linmalariga:

“Qizlar ovozi” klubi faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha tadbirlarni aniq manzilli reja asosida, yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish;

tadbirlarga tajribali mutaxassislar hamda muvaffaqiyatga erishgan ayol-qizlarni jalg etish vazifalari yuklatilsin.

6. Belgilangan vazifalar va tadbirlar ijrosi uchun talab etiladigan sarf-xarajatlar belgilangan muddatlarda alohida buyruq asosida amalga oshirilishi belgilansin.

7. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktori o‘rinbosari D.Kattaxanova zimmasiga yuklansin.

Direktor

A.Sa’dullayev



Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2023-yil 3 - martdagi 01-10/41 - son buyrug‘iga
1-ilova

“Qizlar ovozi” klubi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Qizlar ovozi” klubni (keyingi o‘rinlarda – Klub) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Klub Yoshlar ishlari agentligining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari qoshida, shuningdek barcha mahallalarda loyiha shaklida yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etiladi.
3. Klubga uning faoliyatida ishtirok etish istagini bildirgan 14 yoshga to‘lgan va 31 yoshga to‘limgan yosh ayol-qizlar ixtiyoriy ravishda a’zo bo‘lishi mumkin.
4. Klub o‘z faoliyatini mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

II. “Qizlar ovozi klubi” loyihasining maqsad va vazifalari

5. “Qizlar ovozi klubii” loyihasining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- yosh ayol-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyatda ayol-qizlar mavqeini oshirish, ularga motivatsiya berish va milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- yosh ayol-qizlar bilan “mahallabay” ishlash tizimini tashkil qilish;
- zamonaviy, intellektual shaxs obrazini yaratish, yosh ayol-qizlar manfaatini himoya qilish orqali ular bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish;
- mamlakat istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish orqali jamiyatda gender tenglikni ta’minlash;
- yosh ayol-qizlarning mavjud muammolarini tizimli bartaraf etish choralarini ko‘rish, ularning ruhiy va ma’naviy zo‘riqishini oldini olish;
- qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish;
- demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda faol ayol-qizlar faolligini oshirish hamda klub a’zolari orasidan fidoiy yosh kadrlar zaxirasini yaratish, ularni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mas’ul lavozimlariga tavsiya etish.

III. “Qizlar ovozi klubi” loyihasini tashkil etish

6. “Qizlar ovozi klubi” loyihasiga nomzodlarni tanlab olish **ikki bosqichda** tashkil etiladi.

Birinchi bosqichda mahallarda klub faoliyatini tashkil etish uchun nomzodlarning anketa va hujjatlari Agentlikning tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan o‘rganiladi.

7. Loyihada ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

loyiha anketasi;

2 dona (3x4 hajmdagi) fotosurat;

o‘zining hayoti, faoliyati, ta’limning o‘z faoliyatida tutgan o‘rni va takliflari, qiziqishlari va orzu-intilishlari haqida publitsistik tarjimai hol (A4 formatli qog‘ozda, 14 shriftda 3 betdan oshmasligi lozim);

ishtirokchining iqtidori va faolligini ko‘rsatuvchi hujjatlar (faxriy yorliq, diplom, sertifikat va boshqalar);

ishtirokchining yosh xotin-qizlar o‘rtasida amalga oshirishga mo‘ljallangan loyihasi tavsiyi.

8. **Ikkinchchi bosqichda** respublika va hududiy ishchi guruhi tomonidan nomzodlar hujjatlari o‘rganib chiqilib, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy savodxonligi, liderlik ko‘nikmalari hamda loyiha taqdimoti baholanadi. Baholash natijalariga ko‘ra yuqori ball to‘plagan **5 nafar** yosh ayol-qizlar yo‘nalishlar kesimida viloyat, tuman(shahar) kesimida koordinatorlikka tavsiya etiladi.

Bunda har bir Klubga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha 1 nafardan koordinatorlar tanlab olinadi:

1. Bosh koordinator;

2. Ta’lim yo‘nalish koordinatori;

3. Bandlik va tadbirkorlik yo‘nalishi koordinatori;

4. Sport va salomatlik yo‘nalishi koordinatori;

5. IT va media yo‘nalish koordinatori.

9. Klub koordinatorlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Bosh koordinator – yo‘nalish koordinatorlari faoliyatini tartibga solish, tengdosh-tengdoshga tamoyili asosida tashviqot ishlarini tashkil etish, viloyat, tuman (shahar) kesimida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan respublika koordinatoriga choraklik, yillik hisobotlarni taqdim etish;

Ta’lim yo‘nalish koordinatori – yosh ayol-qizlarni tadqiqotchilikka keng jalb etish, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ta’lim muassasasida tashkil etilayotgan an‘anaviy fan olimpiadalarini targ‘ibot qilish, ta’limga jalb etilmagan yosh ayol-qizlarni zamonaviy kasblarga o‘qitishga ko‘maklashish, yosh ayol-qizlar o‘rtasida ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, yosh olimlar bilan uchrashuvlar, seminar-treninglar tashkil etish;

Bandlik va tadbirkorlik yo‘nalishi koordinatori – yosh ayol-qizlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, tadbirkorlik loyihamalarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishga ko‘maklashish, viloyat, tuman (shahar), mahalla kesimida ayollar hunarmandchiligi rivojlanishiga hissa qo‘sish, biznes motivatsion treninglar tashkil etish;

Sport va salomatlik yo‘nalishi koordinatori – yosh ayol-qizlar o‘rtasida sportni ommalashtirish, sog‘lom-turmush tarzini targ‘ib qilish, viloyat, tuman (shahar), mahalla miqyosida sport musobaqalarini tashkil etish, yosh sport ustalari, olimpiada g‘oliblari bilan uchrashuvlar, seminar-treninglar tashkil etish;

IT va media yo‘nalish koordinatori – viloyat, tuman (shahar), mahalladagi Klubning faoliyatini yoritib borish, ayol-qizlar muammolariga oid mediakontentlar tayyorlash, ayol-qizlar IT savodxonligini oshirishga qaratilgan, o‘quv-seminarlar tashkil etish, gender junralistikani ommalashtirish, gazeta, jurnal hamda saytlarda maqolalar chop etish, ijtimoiy tarmoqlarda Klub faoliyatiga oid chellenjlar o‘tkazish.

10. “Qizlar ovozi klubi” koordinatorlari ro‘yxati viloyat, tuman(shahar) mahalla kommissiyasi qarori bilan tasdiqlanadi va Yoshlar ishlari agentligining ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qilinadi.

Komissiyaning viloyat tarkibi – Agentlik hududiy boshqarmasi boshlig‘i hamda jamoatchilik vakillari (koordinatorlarning soha yo‘nalishida faoliyat yurituvchi olimalar, tadbirkorlar, sport ustalari) ishtirokida tuziladi.

Komissiyaning tuman(shahar) tarkibi – Agentlik tuman(shahar) bo‘limi boshlig‘i, jamoatchilik vakillari (koordinatorlarning soha yo‘nalishida faoliyat yurituvchi olimalar, tadbirkorlar, sport ustalari) ishtirokida tuziladi.

Komissiyaning mahalliy tarkibi esa agentlikning mahalla yetakchisi, mahalla xotin-qizlar faoli va jamoatchilik vakillari (koordinatorlarning soha yo‘nalishida faoliyat yurituvchi olimalar, tadbirkorlar, sport ustalari) ishtirokida tuziladi.

11. Nomzodlar uchun tanloving barcha bosqichlarida belgilangan muddatdan kechikib taqdim etilgan hujjatlar qabul qilinmaydi, shuningdek, taqdim etilgan hujjatlar qaytarib berilmaydi.

12. Klub boshqaruvining oliy organi uning – Ekspertlar kengashi hisoblanadi, Ekspertlar kengashi tarkibi faol jamoatchilik vakillaridan iborat bo‘ladi va Respublika ishchi guruhi tomonidan tasdiqlanadi.

13. Klubning doimiy faoliyati respublika koordinatori tomonidan boshqariladi. Hududiy klublarning doimiy faoliyati esa hududiy hamda mahalliy klubning bosh koordinatorlari tomonidan boshqariladi.

14. Shuningdek, Klub koordinatorlarining ish rejada belgilangan vazifalarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik (sifatsiz bajarish, kechiktirish va hokazo), ijtimoiy munosabatlarda antisotsial xulq-atvorni namoyon qiluvchi xatti-harakatlari aniqlansa, mazkur holat intizomiy nojo‘ya xatti-harakat hisoblanadi va koordinatorlar Klub faoliyatidan chetlatiladi.

15. Hududiy klubining umumiy yig‘ilishi har oyda koordinator tashabbusi bilan o‘tkaziladi. Klubning umumiy yig‘ilishi har chorak yakunida respublika koordinatori tashabbusi bilan o‘tkaziladi.

IV. “Qizlar ovozi klubi” koordinatori faoliyatini rag‘batlantirish tartibi

16. “Qizlar ovozi klubi” koordinatorlarining eng samarali faoliyat yuritgan vakillari Ekspertlar kengashi qaroriga ko‘ra rag‘batlantirilishi mumkin.

Eng samarali faoliyat yuritgan koordinatorlarining rag‘batlantirish uchun mablag‘ Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilib, hududiy boshqarmalarning Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalariga o‘tkazilishi mumkin. Shuningdek,

rag‘batlantirish mablag‘lari Agentlikning hududiy boshqarmalari tomonidan samarali faoliyat yuritgan koordinatorning bank plastik kartasiga o‘tkazib beriladi.

V. “Qizlar ovozi klubi” koordinatorlari faoliyatini tashkil etish tartibi

17. “Qizlar ovozi klubi” respublika koordinatori quyidagi vazifalarini amalga oshiradi:

Klubning har chorakda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar rejasini tasdiqlash uchun taqdim etadi;

Klub yig‘ilishlarini tashkillashtiradi;

Klub faoliyati bo‘yicha har chorak yakunida taqdimot hisobotini o‘tkazadi;

Klub a’zolarining taklif va mulohazalari, yosh ayol-qizlarning faoliyatidagi muammo va kamchiliklar, yutuqlar va turli mavzularga bag‘ishlangan davra suhbatlari, uchrashuvlar, tadbir hamda loyihalarni tashkil qiladi va o‘tkazadi.

“Qizlar ovozi klubi” viloyat, tuman(shahar) koordinatorlari klubning har chorakda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar rejasiga muvofiq faoliyatini tashkil etadi.

VI. Yakunlovchi qoida

18. Klub faoliyati ushbu nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi Agentlik markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarining mas’ul xodimlari tomonidan monitoring qilinadi.

Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2023-yil 9 - martdagи 01-10/41 - son buyrug‘iga
2-ilova

**“Qizlar ovozi” klubi faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha
o‘tkaziladigan tadbirlar
REJASI**

1.	Andijon viloyati	2023-yil 1-aprel, Andijon shahar Yoshlar markazi
2.	Namangan viloyati	2023-yil 2- aprel, Namangan shahar Yoshlar markazi
3.	Farg‘ona viloyati	2023-yil 3- aprel, Farg‘ona shahar Yoshlar markazi
4.	Sirdaryo viloyati	2023-yil 4- aprel, Guliston shahar Yoshlar markazi
5.	Jizzax viloyati	2023-yil 6- aprel, Jizzax shahar Yoshlar markazi
6.	Qashqadaryo viloyati	2023-yil 10- aprel, Qarshi shahar Yoshlar markazi
7.	Surxondaryo viloyati	2023-yil 13- aprel, Termiz shahar Yoshlar markazi
8.	Buxoro viloyati	2023-yil 15-aprel, Buxoro shahar Yoshlar markazi
9.	Xorazm viloyati	2023-yil 17-aprel, Urganch shahar Yoshlar markazi
10.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2023-yil 20-aprel, Nukus shahar Yoshlar markazi
11.	Samarqand viloyati	2023-yil 22-aprel, Samarqand shahar Yoshlar markazi
12.	Navoi viloyati	2023-yil 24-aprel, Navoiy shahar Yoshlar markazi
13.	Toshkent viloyati	2023-yil 27-aprel, Nurafshon shahar Yoshlar markazi
14.	Respublika Forumi (Toshkent shahar)	2023-yil 29-aprel, Toshkent shahar Yoshlar markazi

Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2023-yil 9 - martdag'i 01-10/41 - son buyrug'iga
3-ilova

“Qizlar ovozi” klubi faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan
Respublika ishchi guruhi
TARKIBI*

T/r	F.I.SH	Lavozimi
1.	Kattaxanova Dilnozaxon Sobir qizi	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining o‘rinbosari, respublika ishchi guruhi rahbari
2.	Sultonov Ulug‘bek Olim o‘g‘li	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bo‘lim boshlig‘i, respublika ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
3.	Maxidova Aqida Abidovna	Inflyuenser, respublika ishchi guruhi a’zosi
4.	Matkarimova Nilufar Boqijon qizi	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassisi, respublika ishchi guruhi a’zosi
7.	Jo‘raqulova Marjona Sadiddin qizi	“Yosh maslahatchilar” kengashi raisi, respublika ishchi guruhi a’zosi

* *Respublika ishchi guruh rahbari tavsiyasiga asosan ro ‘yxatga qo ‘shimcha va o ‘zgartirish kiritish mumkin.*